

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA TARBIYALANUVCHILARNI MAKTAB TA'LIMIGA TAYORLASHNING PEDAGOGIK SHART- SHAROITLARI

S.Abdusattarova

Oriental universiteti Samarqand kampusi o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada bolalarni maktabga tayyorlashning o'ziga xos xususiyatlari, boshlang'ich ta'limga oid bilimlarni egallashda bola duch kelishi mumkin bo'lgan qiyinchiliklarni bartaraf etishda ta'lim-tarbiya jarayonini qanday amalga oshirish yo'llari, bu jarayonda tarbiyachi-pedagog hamda o'qituvchilarning o'rni hamda bolalarni maktab ta'limiga tayorlashning shart- sharoitlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: maktabgacha, ta'lim tayorlov, guruh, maktab, ta'lim, tayorlash, pedagogik shart- sharoit

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ УСЛОВИЯ ПОДГОТОВКИ ВОСПИТАННИКОВ ДОШКОЛЬНЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ОРГАНИЗАЦИЙ К ШКОЛЬНОМУ ОБУЧЕНИЮ

Аннотация: В данной статье раскрываются особенности подготовки детей к школьному обучению, пути организации учебно-воспитательного процесса по преодолению трудностей, с которыми может столкнуться ребенок при освоении знаний начального образования. Также освещается роль воспитателя-педагога и учителей в данном процессе, а также педагогические условия подготовки детей к школьному обучению.

Ключевые слова: дошкольное образование, подготовка к обучению, группа, школа, образование, подготовка, педагогические условия.

PEDAGOGICAL CONDITIONS FOR PREPARING CHILDREN IN PRESCHOOL EDUCATIONAL ORGANIZATIONS FOR SCHOOL EDUCATION

Abstract: This article reveals the specific features of preparing children for school education, the ways of organizing the educational process to overcome the difficulties that a child may face in mastering the knowledge of primary education. It also highlights the role of preschool teachers and primary school teachers in this process, as well as the pedagogical conditions for preparing children for school education.

Keywords: preschool education, preparation for learning, group, school, education, preparation, pedagogical conditions.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni maktab ta'limiga tayorlash nafaqat muhim, balki murakkab jarayon bo'lib, bu jarayon mas'uliyat bilan yondashuvni talab qiladi. O'qituvchi pedagoglar bu jarayonda asosiy rol o'ynab, bolani maktab ta'limiga tayyorlashda zamonaviy ta'lim talablariga javob berishi uchun ularga ta'lim-tarbiya berish jarayonida turli tadqiqotchilik faoliyatini amalga oshiradi. Bilamizki, texnologiyaning jadal rivojlanishi pedagoglardan o'z ustida tizimli ishlash, bolani yangi bilimlar bilan qurollantirish, matiqiy fikrlash

ko'nikmasini shakllantirish uchun o'quv dasturlarida berilgan ma'lumotlarga qo'shimcha sifatida yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanib mashg'ulotlarni yanada sifatli hamda bolalar o'rganishlari uchun qulay qilib tashkil etish zaruriyatini keltirib chiqarmoqda. Bu esa tarbiyachi-pedagog hamda o'qituvchilardan ijodiy izlanishni talab qiladi.

Tayyorlov guruhi bolalarini boshlang'ich ta'limga tayyorlashda o'qituvchi-pedagoglar tomonidan amalga oshiriladigan faoliyatlar juda muhim bo'lib, ular quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1. Ta'limiy dastur va rejalashtirishga oid faoliyatida o'qituvchi-pedagoglar bolalar uchun ta'limiy dasturlar asosida mashg'ulot ishlanmalar yaratadilar, bu mashg'ulot ishlanmalar bolalarning yoshiga va rivojlanish darajasiga mos kelishi kerak. Ularda quyidagi yo'nalishlar o'z ifodasini topishi kerak:

a) kognitiv rivojlanish: Matematik, mantiqiy fikrlash, til rivojlanishi kabi sohalar uchun mos mashg'ulotlar.

b) ijtimoiy ko'nikmalar: Bolalarning jamiyatda qanday munosabatda bo'lishlarini o'rgatadigan faoliyatlar, masalan, guruh ishlari va o'yinlar.

d) emotsional rivojlanish: Bolalarning o'z-o'zini anglash va nazorat qilish malakalarini hamda emotsiyalarni tanish va ifodalashni rivojlantirish. Misol uchun, "Emotsiya kartochkalari" o'yini yordamida bolalar qanday his-tuyg'ularni ifodalashni va boshqalarning emotsiyalarini tushunishni o'rganadilar.

2. Emotsional va psixologik qo'llab-quvvatlash faoliyati orqali bolalarda psixologik yoki emotsional muammolarni erta aniqlash va ularni yechishga yordam berishlari lozim. Masalan, qo'rquv, tashvish yoki o'z-o'zini baholash muammolari. O'zaro munosabatlarni rivojlantirishda bolalarga ijtimoiy ko'nikmalarni o'rgatish, boshqa bolalar bilan o'zaro munosabatlarni rivojlantirish, o'zaro hurmat va empatiya ko'nikmalarini shakllantirish.

3. Motivatsiya va qiziqish jarayonlarini rivojlantirishga oid faoliyat. O'qituvchilar bolalar uchun qiziqarli va motivatsion faoliyatlarni tashkil etishi va o'yinlar orqali bolalarning qiziqishini oshirish, bu ularning o'rganishga bo'lgan ishtiyoqini oshirishi kerak. Shu bilan birga bolalarga yangi bilimlarni o'rganishga qiziqishlarini uyg'otish uchun interaktiv usullarni qo'llay olishlari lozim.

4. Rivojlantiruvchi faoliyatlar. O'qituvchilar bolalarning umumiy rivojlanishini ta'minlash uchun quyidagi faoliyatlarni tashkil etishi kerak:

Yozuv va o'qish: Bolalarga yozish va o'qish ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam berish. Masalan, rang-barang kartochkalar yoki so'zli o'yinlar yordamida.

Matematik va mantiqiy ko'nikmalarni rivojlantirishda oddiy matematik mashqlar, mantiqiy fikrlashga oid mashqlar yoki qiziqarli logik o'yinlardan foydalanish orqali.

5. Individual yondashuv. O'qituvchilar har bir bolaning shaxsiy ehtiyojlarini va qobiliyatlarini hisobga olib, quyidagi yondashuvlarni qo'llashlari mumkin:

a) individual rejalashtirish: Har bir bolaning individual rivojlanish rejasini tuzish va amalga oshirish.

b) shaxsiy qo'llab-quvvatlash: Har bir bolaning kuchli va zaif tomonlarini aniqlash, ularga mos keladigan qo'llab-quvvatlash strategiyalarini ishlab chiqish.

6. Ota-onalar bilan hamkorlik. O'qituvchilar ota-onalar bilan samarali hamkorlikni ta'minlaydilar:

a) ma'lumot va maslahatlar orqali ota-onalarga bolalarining ta'limiy rivojlanishi haqida doimiy ravishda ma'lumot berish va maslahatlar taqdim etish.

b) ota-onalar yig'ilishlari orqali rivojlanish va o'rganish jarayonida ota-onalarning faol ishtirokini ta'minlash uchun uchrashuvlar va seminarlar tashkil etish.

7. Tajriba va maslahatlarga oid faoliyatda o'qituvchilar o'z tajribalarini bo'lishishlari va yangi pedagogik metodikalarni joriy etishlari, pedagogik innovatsiyalarga oid yangi ta'lim uslublari, texnologiyalar va metodikalarni o'rganishlari va tatbiq etishlari lozim bo'ladi. O'qituvchilar o'rtasida tajriba almashish faoliyati orqali pedagogik tajriba va metodikalarni bir-biriga o'rgatish, shu orqali umumiy ta'lim sifatini oshirishga bir qadar hissa qo'shishlari mumkin. Masalan, pedagogik konferensiyalar va malaka oshirish kurslarida ishtirok etish.

Bu faoliyatlarning to'g'ri va muntazam amalga oshirilishi pedagoglarning tayyorlov guruhi bolalarini boshlang'ich ta'limga tayyorlashdagi muhim rolini aks ettiradi. Ta'lim-tarbiya jarayonining muvaffaqiyatli amalga oshirilishi esa bolalarning maktabga tayyor bo'lishi va muvaffaqiyatli rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatadi.

Xulosa. Maktabga tayyorlov guruhi bolalari uchun o'qituvchi-pedagoglarning roli, mas'uliyati, ijodkorligi, tahliliy va tanqidiy fikrlashi izlanuvchanligi muhim ahamiyat kasb etadi. Sababi, bolalar maktabgacha tayyorlov guruhlarida Yozish, o'qish hisoblash kabi daslabki ko'nikmalar shakillantirilgan bo'lsa maktab ta'limida bu jarayon ancha murakkablashadi. Maktab ta'limida o'qituvchidan chuqur bilm yetarlicha tajriba pedagogic mahorat va ijodkorlik kabi sifatlar talab qilinadi. Shuningdek maktabdagi o'qituvchi yetarli darajada pedagogik-psixologik bilimlarni puxta egallagan bo'lishi talab etiladi. Chunki o'qituvchi nafaqat o'quvchilar jamoasi bilan balki ota-onalar o'qituvchilar jamoasi hamda ayrim o'quvchilar bilan individual ish olib borishga to'g'ri keladi. Shu bois oliy ta'lim tizimida maktabgacha ta'lim tizimida tayorlanayotgan tarbiyachi pedagoglarning shaxsiy, kasbiy, umummadaniy ijtimoiy, kommunikativ va mahsus kompetensiyalarni shakillantirishga e'tiborni qaratish zarur. Ushbu vazifalar amalga oshirilganda barkamol avlodni tarbiyalashdek davlat buyurtmasi bajarilgan bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Boboyorova G. Bolalarni maktabga tayyorlashda interfaol usullardan foydalanish. /Maktabgacha ta'lim jurnali, 2007. 6-son.

2. M.Rasulova, D.Abdullayeva, S.Oxunjonova, «Bolalarni maktabga psixologik tayyorgarligi» Toshkent nashiyoti, 2004 yil.

3. Терещенко М.Н., Подготовка детей к обучению в школе: вчера и сегодня -Актуальные вопросы современной науки, 2008. 226-б.ср

4. Гуткина Н.И., Психологическая готовность к школе. – М. Академический Проект, 2000. 184-ср.